

ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR PSIXIK RIVOJLANISHINING XUSUSIYATLARI

Sadirova Kamola Giyozovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy

pedagogika universiteti

Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning

klinik asoslari kafedrası PhD., dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha yoshidagi bolalar psixik rivojlanishining xususiyatlari, maktabgacha yoshida sensor va aqliy rivojlanishi, o'z-o'ziga xizmat qilish, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar reabilitatsiyasini amalga oshirishda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi va oilaning pedagogik xamkorligi borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Eshitishdagi nuqsonlar, intellektual rivojlanish, nutqiy rivojlanish, maktabgacha yosh, maktabgacha yosh, o'z-o'ziga xizmat qilish, reabilitatsiya, ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi, hamkorlik.

Intellektual rivojlanishi meyorda bo'lgan kar bolalarning nutqiy rivojlanishi eshitishi risoladagidek bo'lgan bolalarga nisbatan kechroq boshlanib, ravon gapirish bosqichiga yetmaydi. 1yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan kar bolalarga turli tuman ovoz chiqarish, gugulash, inqillash, g'uldirash, ovozsiz artikulyatsiya qilish, turli xatti-harakatlar orqali o'z xohish istaklarini, munosabatini bildirishga harakat qilish o'ziga hos xususiyatdir. Odatda kar bolalar jarangdor ovozga, kulgiga, tabiiy yig'iga ega bo'ladilar. Ovozni qabul qilish qobiliyati yo'qligi tufayli o'rgatilmagan kar bolalarda aksariyat hollarda ovozga (reaksiya) munosabat bildirish hislatlari ular katta bo'lgan sari keskin susayib boradi. Ko'pchilik kar bolalarda gapiruvchining lab harakatini kuzatish, lab harakatiga ovoz chiqarib yoki chiqarmasdan taqlid qilish holatlari kuzatiladi.

Kar bolalarning maktabgacha yoshida sensor va aqliy rivojlanishida sezilarli siljishlar ro'y beradi. Binobarin, bu paytga kelib, bolalarning predmetli tafakkuri, predmetli harakatlari muayyan darajaga yetadi. Zotan, bu payitda bolalarning predmetlardan qanday foydalanishni bilishlaridan tashqari, ularda ro'zg'orda foydalanish yo'l yo'riqlarini ham o'ranib olgan davr bo'ladi. Barcha aqliy rivojlanishi meyorda bo'lgan kar bolalar, maktabgacha tarbiya yoshining o'rta va katta davrlarida qoshiqdan qanday foydalanishni, o'z-o'ziga xizmat qilishni boshqalardan o'rganib olgan bo'ladilar.

Shuni ta'kidlash joyizki, bolalarning aqliy taraqqiyoti va sensor tarbiyasining saviyasi bola oldiga qo'yilgan vazifani aniq bajarganligi bilan ifodalanmasdan foydalangan usullar bilan belgilanadi.

Kar bolalarning mo'ljal olish qobiliyati rivojlanishida quyidagi bosqichlar mavjud:

A) Faqatgina ko'zlangan natijaga mo'ljal olish: bola ko'zlangan maqsadga erishish uchun amaliy sinab ko'rish yo'li bilan , predmetlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan jismoniy kuch ishlata olish yo'li bilan ham harakat qilishi mumkin.

B) Tashqaridan mo'ljal olish hatti-harakatlari: bola yo mo'ljal olishga harakat qilib ko'radi yoki tasmollab chamalab ko'radi. Chunki, bola hali predmetning rangi, hajmi, o'lchamini aniqlab ola olmagan bo'ladi.

V) Obyektni o'z ko'zi bilan ko'rib turib mo'ljallash, peretsepsiya harakati bilan birga qo'shib olib borishi: bola bunday holda predmetning xususiyatiga tayanib ish ko'radi, ko'z bilan chamalab ko'radi, murakkab bo'lib qolganda mo'lal olib sinab ko'rishga harakat qiladi.

G) To'laligicha hayolda mo'ljallash: Ko'rinishidan faqat muqarrar natijalarga erishish uchun behato ijrochilik hatti-harakatini namoyon qiladi.

Bolaga berilgan vazifa turli xil yo'l bilan bajarilishi mumkin, masalan matreshkani sinab ko'rish, tasmollab mo'ljal olish va sinab ko'rish hamda ko'z bilan chamalab o'ta chaqqonlik bilan matryoshkalarni kattadan kichikka joylash va x.k. Biroq shunday vazifalar bo'ladiki, ularni bola tomonidan takomillashgan mo'ljal olishga ega bo'lmay turib to'g'ri bajarilishi mumkin emas. Masalan, piramida xalqalarni ma'lum kattaligida terib chiqish, matryoshkalarni kattaligiga qarab joylashtirishda boladan ham chamalashni, ham mo'ljallashni, ham jismoniy harakatni talab etiladi. Bunday topshiriq tasmollab sinab ko'rish darajasida to'g'ri bajarilmasligi kerak. Kar bolalarning maktabgacha tarbiya yoshi davrida berilgan topshiriqlar eng sodda usullardan murakkabroqlariga yo'naltirib boriladi.

Biroq shuni unutmaslik kerakki, bolani mo'ljallashga o'rgatish funksional yo'nalishda olib boriladi: sodda topshiriqdan murakkabga o'tish chog'ida ko'z bilan chamalab harakat qilayotgan bola sinab ko'rish usuliga qaytishi mumkin.

Maktabgacha tarbiya bo'sag'asida yoshdagi bolaning vazifani bajarishda mo'ljal olishning o'rtacha saviyasi-sinab harakat qilish. Qiyinroq vazifa berilganda, bu bolalar jismoniy kuch ishlatish yo'liga o'tib oladilar.

Uch yoshdan katta bo'lgan bolalarda sinab harakat qilib ko'rishdan tashqari ko'z bilan chamalab ko'rishni ko'proq kuzatiladi. Ammo, bunday usul faqat 4 yoshdan kattaroq bolalarda yetakchi bo'lishi mumkin. Biroq, bu yoshdagi bolalar ham namunalarni tahlil qilish, qirqma rasmlarni yig'ib olish, kattaligiga ko'ra qatorga terish

kabi har xil murakkab vazifalarni bajarishda ham ular «sinab ko'rish» usuliga tushib oladilar.

5 yoshdan kattaroq bolalar topshiriqlarni bajarishda aksariyat hollarda ko'z bilan chamalash usulini qo'llaydilar; bir qator vaziyatlarda topshiriqni chaqqonlik bilan behato bajarishga muvaffaq bo'ladilar. Lekin 5 qismli qirqma rasmni yig'ish, labirintlardan yurish, predmetlarni rangi, shakli, kattaligiga ko'ra guruhlash kabi murakkabroq vazifalarni bajarishda ko'z bilan chamalab tasmollash va ayrim hollarda sinab ko'rish usullarni qo'llashga qaytishi mumkin.

Sensor va aqliy taraqqiy etishi bilan kar bolalarning atrofdagilar bilan muloqot qilish vositalari kengayadi. Bolalarda ko'rsatish ishorasi ajraladi. Ko'rsatish ishorasi, L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, insoniyatda til rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'rsatish ishorasining qo'llanish doirasi takomillashadi, agar avval bolalar biror narsani olish maqsadida uni qo'llagan bo'lsa, endi rang, shakl, hajm, fazoviy joylashuvni farqlashda ham ko'rsatmali ishoralardan keng foydalanadi. 4 yoshgacha kar va zaif eshituvchi bolalarning rivojlanishida deyarli farq bo'lmaydi. 4 yoshdan katta zaif eshituvchi bolalarda karlarga nisbatan muayyan afzalliklar paydo bo'ladi. Sensor va aqliy vazifalarni bajarish paytida zaif eshituvchi bolalar mo'ljal olishda karlarga nisbatan yuqori saviyadagi usullardan foydalanadi. 5 yoshdan kattaroq bolalarda bu qobiliyat yaqqol namoyon bo'ladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar o'rtasidagi farqi predmetlar hususiyatlarini farqlash, namunaga ko'ra predmetni tanlash kabi oddiy vazifalarni bajarishda ko'rinmaydi. Biroq fazoda mo'ljal olish, umumlashtirish tushunchalarining taraqqiy etishini talab qiladigan murakkabroq topshiriqlar bajarish jarayonida kar va zaif eshituvchi bolalar farqi ko'rinadi. Bu topshiriqlar orasida qirqilgan rasmlarni yig'ish, predmetlarni guruhlash, labirintlardan o'tish, qatordagi predmetni o'rnini topish kabi vazifalar o'rin olgan. 4-5 yoshli bolalar predmetli rasmlarni chiza oladi.

Eshitish qobiliyati tug'ma va ilk yoshda pasayishi, vestibulyar apparatining faoliyatining buzilishi bu bolalarda (statik) gavgdani tutish, (lokomotor) harakatlarning orqada qolishiga olib keladi. Ular, xuddi kar bolalardek boshni va gavgdani tutish, o'tirish, turish, yurishni kechikibroq o'rganadi.

Adabiyotlar:

1. Sadirova K. Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 12. – №. 9. – C. 26-28.
2. Sadirova, Kamola. "Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.9 (2022): 26-28.

3. Sadirova, K. (2022). Improving the methods of teaching visual activity to students with hearing impairments based on an innovative approach. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(9), 26-28.

4. Dilfuzakhon I. Theoretical Foundations of the Formation of Communication in Students with Hearing Problems //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 108-110.

5. Isoqjonova, D. M., and Safarova A. ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN. "BOLALARDA BOG ‘LANGAN NUTQINI RIVOJLANTIRISH." International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. 2025.